

KO'ZI OJIZLAR KUTUBXONASI

Termiz davlat universiteti
Milliy libos va san'at fakulteti
Kutubxona axborot faoliyati
2-kurs talabasi
Saparova Asila

Annotatsiya: *Bu maqolada Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ko'zi ojizlar kutubxonasi haqida keltiriladi. Kutubxonamizda Lui Brayl alifbosidagi nashrlar magnit tasmalariga yozilgan "gapiruvchi" o'ram va kassetalar, bo'rtma harfdagi kitoblar va vaqtli nashrlardan iborat.*

Kalit so'zlar: *Lui Brayl, gapiruvchi kitoblar, magnit Kutubxona 1951 yilda shahar ko'zi ojizlar kutubxonasi sifatida tashkil etilgan.*

1966 yilda kutubxona Respublika markaziy ko'zi ojizlar kutubxonasiga aylantirilgan. Kutubxona shu davrdan boshlab ko'rish qobiliyati cheklangan fuqarolarga kutubxona xizmatini ko'rsatish bo'yicha metodik va muvofiqlashtirish markazi hisoblanadi.

Kutubxona ko'zi ojiz kitobxonlarning oila a'zolariga, ko'zi ojizlar jamiyati tizimidagi tashkilot, muassasa va korxonalarda xizmat qiluvchilarga, ko'z kasalliklari bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchi shifokorlar, ko'zi ojiz bolalar, maktab o'quvchilari va o'qituvchilariga xizmat ko'rsatadi.

Kutubxona fondi Lui Brayl alifbosidagi nashrlar, magnit tasmalariga yozilgan «gapiruvchi» o'ram va kassetalar, gramplastinkalar, bo'rtma harfdagi kitoblar va vaqtli nashrlardan iborat.

2001 yildan Respublika radio uyining «Radio-REKORDS» studiyasi tomonidan ko'zi ojiz kitobxonlar uchun «gapiruvchi» kitoblar chiqarish yo'lga qo'yilgan. tasmalar, ko'zi ojizlar jamiyati.

Kutubxonaning umumiy fondi 148 ming nusxadan ortiq bo'lib, Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimidagi 66 ta ko'zi ojizlar kutubxonalariga metodik rahbarlik qiladi.

Respublika bo'yicha ko'zi ojizlar kutubxonalarining umumiy fondi 562 168 ta kitobni, foydalanuvchilar esa 80 543 nafarni tashkil qiladi.

O'zbekistonda ko'zi ojizlar kutubxonalari soni jami 123 taga yetdi. Bu kutubxonalarga o'tgan yil davomida Brayl yozuvidagi, 11 nomdagi 1700 dan ortiq kitoblar tarqatilgan.

"Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi qarorda ham "Maxsus axborot-kutubxona muassasalari tomonidan axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish uchun nogironligi bo'lgan shaxslar to'liq qamrab olinishini ta'minlash maqsadida respublikadagi 1, 2 va 3-guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning ro'yxatini shakllantirish,

ro'yxatni har uch yilda yangilab borish. Shakllantirilgan ro'yxat asosida 250 nafar ko'zi ojiz nogironligi bo'lgan shaxslar yashaydigan tuman(shahar)larda yangi ko'zi ojizlar kutubxonasi filiallari tashkil etish choralarini ko'rish" to'g'risida alohida band keltirilgan. Bundan tashqari, ushbu hujjatda Toshkent shahrida yangi ko'zi ojizlar kutubxonasini ochish to'g'risida ham alohida to'xtalib o'tilgan. Nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risidagi hukumat qarori qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasining nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini takomillashtirish hamda ko'zi ojizlar kutubxonalari faoliyatini rivojlantirish va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Dasturga binoan, maxsus axborot-kutubxona muassasalari tomonidan axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish uchun nogironligi bo'lgan shaxslar to'liq qamrab olinishi maqsadida respublikadagi 1, 2 va 3-guruh nogironligi bo'lgan shaxslar ro'yxati shakllantiriladi hamda har uch yilda yangilab boriladi. Shakllantirilgan ro'yxat asosida 250 nafar ko'zi ojiz shaxslar yashaydigan tuman (shahar)larda yangi ko'zi ojizlar kutubxonasi filiallarini tashkil etish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, nogironligi bo'lgan kitobxonlar o'rtasida "Eng faol kitobxon", "Brayl yozuvida tez va ifodali o'quvchi kitobxon", "Eng yaxshi kitobxon oila" kabi ko'rik-tanlovlarni muntazam va bosqichma-bosqich o'tkazib borish, shuningdek, Markaziy ko'zi ojizlar kutubxonasida Brayl yozuvida adabiyotlar chop etish uchun tipografiya hamda audio kitoblar yaratish maqsadida ovoz yozish studiyasini ochish rejalashtirilgan.

Qaror bilan axborot-kutubxona muassasalariga kelishga imkoniyati yo'q foydalanuvchilar uchun Internet orqali audio kitoblardan foydalanish tizimini yo'lga qo'yish hamda ko'chma kutubxonalar tashkil etish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Lekin Toshkent shahrida 4 mingdan ortiq ko'zi ojiz fuqarolar bo'lishiga qaramay hanuz shahar kutubxonasi ochish ortga surib kelingan.

Uchtepa tumanida joylashgan shahardagi yagona ko'zi ojizlar uchun ixtisoslashgan Markaziy kutubxona hamma foydalanuvchilar uchun ham qulay emas. Uyg'a kitob yetkazish xizmati orqali hozir turli tumanlarda yashayotgan ko'zi ojiz o'quvchilarimizga Brayl yozuvidagi kitoblarni ham imkon boricha yetkazib berishga harakat qilinyapti. Biroq, ularni to'liq qamrab olish oson emas. Agar shahar kutubxonasi va uning tuman filiallari ochilsa, kitobxonlarga ham ancha oson bo'lardi.

Hozir mamlakatda kitobxonlikka jalb qilish bo'yicha juda ko'p ishlar qilinyapti. Lekin kitobga tashna ko'zi ojiz kitobxonlarchi?

O'zbekistonda ko'zi ojizlar kutubxonalari soni jami 123taga yetdi. Bu kutubxonalarga o'tgan yil davomida Brayl yozuvidagi, 11 nomdagi 1700dan ortiq kitoblar tarqatilgan.

Respublika bo'yicha ko'zi ojizlar kutubxonalarining umumiy fondi 562 168ta kitobni, foydalanuvchilar esa 80 543 nafarni tashkil qiladi.

Respublika ko'zi ojizlar bosmaxonasi tomonidan ta'lim muassasalari uchun 75 nomda o'quv darsliklar nashr qilindi. Qarshi shahridagi "Mavhumot olamiga ma'lumot" tifloaxborot majmuasi tomonidan ko'zi ojizlar kutubxonalariga 106 nomdagi brayl adabiyotlar yetkazib berildi. Kelgusida jamiyat tomonidan tegishli tashkilotlar, tadbirkorlar bilan hamkorlikda mamlakatimizda ko'zi ojizlarning ta'lim olish jarayonida zarur bo'lgan darsliklar va badiiy adabiyotlar adadini oshirishga oid xayrli ishlar kengaytiriladi", deydi mutaxassis.

Xulosa qilib aytganda Kutubxona ko'zi ojiz kitobxonlarning oila a'zolariga, ko'zi ojizlar jamiyati tizimidagi tashkilot, muassasa va korxonalarda xizmat qiluvchilarga, ko'z kasalliklari bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchi shifokorlar, ko'zi ojiz bolalar, maktab o'quvchilari va o'qituvchilariga xizmat ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://shosh.uz/uz/kutubxonalar-respublika-markaziy> ko'zi ojizlar kutubxonasi.
2. <https://kun.uz>
3. <https://library-cisc.uz/kitoblar>
4. <https://www.ziyouz.com>
5. B.I. Ganieva; Ma'sul muharrir S.X.Davlatov.-T.: Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy – metodik hamda axborot markazi TDMI, 2012.- b.